

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MAKROIQTISODIY
XAVFSIZLIK GAROVI**

Karimova Oybibi Xamidovna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti magistratura talabasi

Kambag‘allik tushunchasi, uning xalqaro mezonlari qay tartibda belgilanishi borasida jahonda umumqabul qilingan hamda yagona kelishuv mavjud emas. Har bir mamlakat o‘zi uchun belgilangan kambag‘allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. Xususan, BMT ta’rifiga ko‘ra, kambag‘allik insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun to‘sqliarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minalash imkoniyatlari yetishmasligi kabi cheklowlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kambag‘allik bu – insonlar, uy xo‘jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizlidir (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining “Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma”sidan, 2017 yil Nyu-York, Jeneva). Demak, yuqorida dalillardan kelib chiqib, aholini mehnat bilan ta’minalash va yetarli daromad manbalarini shakllantirish kambag‘allikni qisqartirishning bosh omili bo‘lib hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilish esa, aynan aholini mehnat bilan bandligini va yetarli daromad manbasiga ega bo‘lishini ta’minalaydi. Shu bilan bir qatorda budjet xarajatlarini ortib ketishini oldi olinadi.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanishi bilan birga bu boradagi ilmiy ishlar ham jadallahshdi. Iqtisodiyot sohasining ilmiy mutaxassis va olimlari tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan¹.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda kambag‘allikni qisqartirishda juda katta ijobjiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri sifatida mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, aholini ish bilan ta’minlash hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida 2022-yil 28-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida kambag‘allikni oldini olish bo‘yicha aniq maqsadlarni o‘z ichiga olgan Farmon qabul qilindi. Ushbu farmonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha qator ishlarni amalga oshirish maqsad qilingan.

37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlargaga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.²

Ushbu maqsaddan ko‘zlangan asosiy maqsad fuqarolarni kasb-hunarli qilgan holda ularning doimiy daromadlar bilan ta’minlash hamda budjetdan ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan pul mablag‘larini tejash imkoniyatini yartadi. Shu bilan birga soliq tushumlarini ortishiga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarini tashkil qilishda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilishi ham bedjet xarajatlarini kamayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatdagi ijtimoiy tenglikni ta’minlash va jamiyatda ayollarni o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha quyidagicha ishlarni amalga oshirish belgilangan:

69-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash.³

¹ Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 betlar

² 2022—2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI

³ 2022—2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ushbu maqsadni joriy qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ayollarni har tomonlama teran, zukko, bilimli va iqtisodiy faol bo‘lishlarini ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Oilaning iqtisodiy xavfsizligi albatta u yerdagi oila a’zolarining daromadlari bilan bog‘liqdir. Ushbu ishlarni amalga oshirishda kamiyatdagi ayollarga nisbatan ijtimoiy to‘silalar hamda adolatsizliklarni oldini olish hamda bartaraf etishga qaratilgan ishlarni o‘z zimmasiga oladi.

85-maqsad: Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.⁴

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda davlat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar yordamida hal qilish ko‘zda tutilgan. Aholini xufyona iqtisodiyotda faoliyat olib borayotgan qismini qonuniylashtirish, norasmiy ravishda daromad qilayotgan aholi daromadlarini rasmiylashtirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish kerakligi ta’kidlangan.

Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og‘ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ijtimoiy yordamini ko‘rsatish. Kambag‘allikni qisqartirishda Xitoy tajribasini puxta o‘rgangan holda amalga oshirish maqsad qilib olingan. Qo‘sishmcha qiladigan bo‘lsak kambag‘allikni qisqartirishda mamlakatimizda shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini QQS solig‘idan ozod qilish kabi ishlar amalga oshirildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Mahallalarda “yettilik” munosabatlarini yaxshilash hamda mavjud muammolarni o‘zida bartaraf etish mexanizmini joriy qilinishi, ishlarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilini ta’minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu takliflarni taqdim etamiz:

Mahallalarda “yettilik” munosabatlarini yuqori darajada amalga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

oshiryoqganlarga “***bir martalik***” moddiy rag‘batlantirishni joriy qilish;

Mahalla tadbirkorlari va davlat o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarini joiry etgan holda ishsiz aholini kasb-hunarga o‘qitish mexanizmini joriy etish hamda ushbu o‘qitilgan aholini ish bilan ta’minlanganlik darajasi ***60%*** dan yuqori natijani qayd etganlarga soliqlardan ozod qilish;

Mahallada kambag‘allik qarshi kurashda elektron tizimni joriy qilish va kambag‘allikka qarshi kurashda sustkashlik hamda loqaydlikka yo‘l qo‘yganlarni ish haqilaridan jarima sifatida ***30%***ni undirish;

Ko‘rsatilayotgan yordamlarga sovuqqonlik bilan yondashgan, ish bilan ta’minlanishida turli xil asossiz bahonalarni rukach qilib ishsiz yurgan fuqarolarni davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordamlardan ozod etish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kambag‘allikni qisqartirish davlat budgetiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib budget defitsitini oldini olishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasir qiladi. Budget defitsiti makroiqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichi sifatida tan olingan.